

## TURK TILI VA O'ZBEK TILINING XORAZM SHEVASIDA AYNI VA O'XSHASH KO'RINISHDAGI FRAZEOLOGIK IBORALAR

Saburov Bobur Komiljon o'g'li

### Annotatsiya

Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Turk tilida va xorazm lahjasida shunday ibora va maqollar borki ular ham talaffuzida ham ma'no jihatidan bir xildadir. Bularga misol tariqasida “adı çıkmak”, “dil dökmek”, “sesini çıkarmamak” kabi bir nechta iboralarni keltirish mumkin.

**Tayanch so'z va iboralar:** Xorazm, lahja, Turkiy tillar, o'zbek adabiy tili, frazeologik iboralar, og'zaki nutq.

Og'zaki nutq jarayonida tayyor qolipga solingan, an'anaviy tarzda avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalqona iboralar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu toifa iboralar frazeologiya nomi ostida yuritiladi. “Biz biror tilda so'zlashar ekanmiz, o'z nutqimizda alohida so'zlar bilan birga turg'un birikmalardan, ya'ni frazeologik iboralardan ham foydalanamiz.”<sup>1</sup>

Bunda iboralar bevosita shu nutq jarayoni davomida yaratilmay, xuddi so'zlar kabi tayyor holda xotiradan olib ishlatiladi. Frazeologik iboralar so'zlar bilan birga qurilish materiali hisoblanib, tilning muhim tomonini tashkil etadi”. Frazeologik iboralar obrazli tasvirni ro'yobga chiqaradi. Shu sababli ular badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda turadi.

Turk tilida va xorazm lahjasida shunday ibora va maqollar borki ular ham talaffuzida ham ma'no jihatidan bir xildadir. Ulardan bir qanchasini misol tariqasida quyida keltirib o'tamiz.

**Adı çıkmak** iborasi turk tilida salbiy jihatdan mashxur bo'lmoq, tanilmoq ma'nolarini bildiradi. Xorazm shevasida bo'lsa ushbu so'zni ham salbiy ham ijobiy ma'noda qollashimiz mumkin.

Turk tilida: Bir kere adı çıkmış, ne yapsa fayda etmiyor, kimse dinlemiyor onu. Xorazm lahjasida: Kasalni adı çıkkan tavupa alıp bardıla.

**Adım atmamak** iborasi xorazm shevalarida ham turk tilida ham bir xil ma'noni ya'ni qadam bosmaslikni anglatadi.<sup>2</sup>

Turk tilida: Bir daha o eve adım atmamaya yeminliyim.

Xorazm lahjasida: Bu işxonağa ikinci adımını atmıman.

<sup>1</sup> Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. –Т., 1966.

<sup>2</sup> Tuk tilida keltirilgan ushbu bobdagi misollarning barchasi Turk Dil Kurumuning rasmiy [www.sozluk.gov.tr](http://www.sozluk.gov.tr) saytidan olingan.

**Ağzı açık** iborasi parishon, anqaygan, hayron qolgan, sehirlangan ma'nolarida keladi.

Turk tilida: "Kimi kez herkese dođal gelen bir Őeye ađzı ađık bakakalırdım." - **Adalet**

**Ađaođlu**

Xorazm lahjasida: Anvar ađzı ađık bolmađanında Őu kıznı alar adi.

Istamastan, gapirishi kerak bo'lmagan narsani gapirib qo'ymoqni bildiruvchi, turk tilidagi **ađzından kađırmak** iborasi Xorazm lahjasida ham mavjud.

Turk tilida: Dikkatli ol, lafı ađzından kađırıp da gideceđimiz yeri sđyleme.

Xorazm lahjasida: Aramızdagi gapni ađzından kađırma.

**Ađzının suyu akmak** iborasi biror narsani yeyishni yoki biror narsaga ega chiqishni juda qattıq istashni bildiradi. Xorazm lahjasida ham bir xil ma'noni anglatadi.<sup>3</sup>

Turk tilida: Bu ziyafete elimiz eriŐmiyor, uzaktan ađzımın suyu akıyor." - **ReŐat Nuri**

**Güntekin**

Xorazm lahjasida: Stoldegi ovqatlanı gđrinđa Eldornı ađzını suvu aktı.

Barakasini bersin, Olloh ko'prog'ini bersin tilagi ma'nolaridagi **bereket versin** iborasi xorazm lahjasida ham xuddi shunday ibora mavjud.

Turk tilida: "Bereket versin, gece bu kır yolu تنها idi." - **Hüseyin Rahmi Gürpınar**

Xorazm lahjasida: Köp bârsin, bereket bârsin

**Dil dđkmek** iborasi o'z foydasi yo'lida, o'z maqsadiga yetishish uchun chiroyli gaplar so'zlashni anglatadi.

Turk tilida: PeŐine dđŐen ocuđu ne kadar dil dđktüyse de evde kalmaya razı edemedi.

Xorazm lahjasida: İŐim bitiŐi üçün niççalli dil dđksemem paydası bomadı.

Adabini bermoq ma'nosini bildiruvchi turk tilidagi **hakkından gelmek** iborasi xorazm lahjasida **hakkından çıkmak** ko'rinishida mavjud.

Turk tilida: "AnlaŐılan Cemal PaŐa'nın bu iŐe yarar bir adamı yok, bize bıraksın, haklarından gelelim, dediler." - **Falih Rıfkı Atay**

Xorazm lahjasida: Bahadırmı hakkından çıkıb puunıl barmadım.

**Sesini ıkarmamak** iborasi biror narsa yoki voqea haqidagi fikrlarini ichiga yutmoq, jim qolmoq ma'nolarini bildiradi. Turk tilida ham xorazm lahjasida ham deyarli bir xil talaffuz qilinadi.

Turk tilida: "Sesini ıkarmadı. Mütevekkil bir hâli vardı." - **Necip Fazıl Kısakürek**

Xorazm lahjasida: Sarvara sâsini ıkarmaslıkını buyurdula.

**DiŐ gıdırdatmak** iborasi jahli chiqqanini ko'rsatmoq ma'nosini anglatadi.

Turk tilida: "Dediđini yaptıramayınca diŐlerini gıdırdatmaya baŐladı."

Xorazm lahjasida: Aytqan gaplarına diŐlerimni gıdırdatıp zorđa ıdadım.

<sup>3</sup> Жуманиёзова М. Хоразм халқ қўшиқлари лексикаси. Филол. Фанлари номзоди... дис. Автореф. –Т.: 1999.



Voqeaning u qadar ahamiyatli emasligini anglatuvchi hamda uzr so‘ragan odamga javoban “hechqisi yo‘q” iborasining turk tili va xorazm lahjasidagi ko‘rinishi **ziyanı yok** iborasi bo‘lib, bir xil talaffuz qilinadi.

Turk tilida: "Biraz çabuk işe girişmiş olacağız ama ziyanı yok, diye düşündü." - **Samim Kocagöz**

Xorazm lahjasida: Javlonni sorağan keçirimina Anvar ziyonı yok, kısınma dab cavob bardı. Yozuv va talaffuzda biroz farq ko‘zga tashlansada, bu o‘xshashlikni inkor etolmaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. –Т., 1966.
2. Мадрахимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси.–Т.: “Фан”, 1973.
3. ЕКЕР S. Özbekistan'da oguzca bir diyalekt .Güney Harezmi-Oğuzcası. 114-126 b.